

QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2026-yil 2-son)



PEDAGOGIKA  
PEDAGOGY

**OLIV TA‘LIMDA SUN‘IY INTELEKT: TANQIDIY FIKRLASH, AKADEMIK  
HALOLLIK VA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINING  
INTEGRATSIYASI**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.054>

*Arabova Gulsanam Saburovna*

*Ma‘mun universiteti, Xiva, O‘zbekiston*

[arabova\\_gulsanam@mamunedu.uz](mailto:arabova_gulsanam@mamunedu.uz)

*Boltaboyeva Madina Bahodir qizi*

*Samarqand davlat pedagogika instituti*

*2-bosqich talabasi*

[madinamboltaboyeva@gmail.com](mailto:madinamboltaboyeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada oliy ta‘limda sun‘iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, akademik halollikni ta‘minlash hamda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonlari bilan integratsiyada tahlil qilinadi. SI ta‘limiy jarayonni shaxsiylashtirishi va muloqotni simulyatsiya qilishi bilan birga, mualliflik, plagiat, manbasizlik va axborot ishonchliligi kabi xavflarni ham kuchaytiradi. Maqolada “halollikka yo‘naltirilgan SI-didaktika” yondashuvi, baholash rubrikasi, interkultural topshiriqlar dizayni hamda o‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** sun‘iy intellekt, tanqidiy fikrlash, akademik halollik, plagiat profilaktikasi, millatlararo muloqot, interkultural kompetensiya, raqamli etika, oliy ta‘lim didaktikasi.

**Аннотация.** В статье рассматривается интеграция инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в высшем образовании как фактор развития критического мышления студентов, обеспечения академической честности и формирования культуры межнационального общения. Показано, что ИИ, усиливая персонализацию обучения и моделирование коммуникаций, одновременно повышает риски плагиата, утраты авторского голоса, бездоказательных утверждений и недостоверности информации. Предлагается подход “ИИ-дидактика, ориентированная на честность”, критерии оценивания, задания межкультурной направленности и рекомендации по развитию компетенций преподавателя.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, критическое мышление, академическая честность, профилактика плагиата, межкультурная коммуникация, цифровая этика.

**Annotatsion.** This paper examines the integration of AI tools in higher education as a means to develop students’ critical thinking, ensure academic integrity, and foster an intercultural communication culture. While AI supports personalized learning and communication simulations, it also increases risks related to plagiarism, loss of authorial voice, unsupported claims, and information unreliability. The paper proposes an integrity-oriented AI didactics approach, an assessment rubric, intercultural task design, and recommendations for teacher competency development.

**Keywords:** artificial intelligence, critical thinking, academic integrity, plagiarism prevention, intercultural communication, digital ethics.

**Kirish.** So‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimi raqamli transformatsiya bosqichiga tezkor kirib keldi. Sun‘iy intellekt (SI) asosidagi tizimlar ta‘lim jarayonida matn yaratish, tahlil qilish, tarjima qilish, muloqotni modellashtirish, topshiriqlarni shaxsiylashtirish kabi funksiyalarni taklif etmoqda. Ushbu imkoniyatlar ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq SI bilan bog‘liq amaliyotlar akademik muhitga yangi chaqiriqlarni ham olib kirdi: talabaning mustaqil fikr yuritishi susayishi, manbasiz “tayyor” javoblar ko‘payishi, plagiatning yangi ko‘rinishlari, mualliflik mas‘uliyatining tarqoqlashuvi, baholashning adolatlilik tamoyili zaiflashuvi kabi holatlar muammoli tus olmoqda.

Shu bilan birga, oliy ta‘limning ijtimoiy vazifalari ham kengaymoqda. Ko‘p madaniyatli akademik muhit, xalqaro hamkorlik, talaba va o‘qituvchilarning mobilligi sharoitida millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish strategik ehtiyojga aylandi. Millatlararo muloqot madaniyati faqat “muomala odobi” emas; u turli madaniyat vakillari bilan hamkorlikda ishlash, stereotiplarni tanqidiy tahlil qilish, tolerantlik, empatiya va etik diskursni yuritish kompetensiyalarini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda tanqidiy fikrlashning o‘rni markaziy: stereotiplar, manipulyativ axborot, noto‘g‘ri umumlashtirishlar aynan tanqidiy filtrlash yetishmasligidan kuchayadi. Akademik halollik esa muloqotning ishonch poydevori bo‘lib, hamkorlik va ilmiy munozaraning adolatli va dalillarga tayangan bo‘lishini ta‘minlaydi. Demak, SI sharoitida masala “foydalanish/foydalanmaslik” ikkiligi bilan cheklanmaydi. Asosiy savol — SI dan qanday metodik, etik va baholash mexanizmlari orqali foydalanilganda u bir vaqtning o‘zida talabalarda tanqidiy fikrlashni kuchaytirishi, akademik halollik madaniyatini mustahkamlashi va millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin? Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u SI ni texnik vosita sifatida emas, balki oliy ta‘limning qadriyatlar tizimi (halollik), kognitiv kompetensiyasi (tanqidiy

fikrlash) va sotsiomadaniy vazifasi (millatlararo muloqot) bilan integratsiyada yondashadi. Taklif etilayotgan “halollikka yo‘naltirilgan SI-didaktika” konsepsiyasi SI ni “javob generatori” emas, “tahlil va refleksiya obyekti”ga aylantirishni ko‘zlaydi. Tadqiqot maqsadi oliy ta’limda SI dan samarali foydalanishning tanqidiy fikrlash, akademik halollik va millatlararo muloqot madaniyati integratsiyasidagi istiqbollarni konseptual asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tanqidiy fikrlash (critical thinking) oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning markaziy tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Uning mazmuni faqat “tanqid qilish” bilan emas, balki dalil va xulosani ajratish, manbani baholash, mantiqiy xatolarni aniqlash, muqobil nuqtayi nazarni ko‘rish va asosli qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar bilan belgilanadi. R. Paul va L. Elder tanqidiy fikrlashni “fikrlash sifatini nazorat qilish” (self-regulation of thinking) tamoyili asosida izohlab, unda standartlar (aniqlik, mantiqiylik, dalillilik, relevatlik) muhim ekanini ta’kidlaydi. Bu yondashuv SI davrida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki SI taqdim etgan matn “silliq” va ishontiruvchi bo‘lishi mumkin, lekin u har doim ham dalilga tayangan bo‘lavermaydi.

Ta’lim nazariyalarida tanqidiy fikrlash konstruktivizm va metakognisiya bilan ham bog‘lanadi: talaba bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni quradi, o‘z fikrlash jarayonini kuzatadi va boshqaradi. Metakognitiv yondashuvda “Nega bu xulosaga kelding?”, “Qaysi dalil kuchliroq?”, “Qaysi nuqtada xato ketishi mumkin?” kabi savollar tanqidiy fikrlashni faollashtiradi. SI bilan ishlashda aynan shu turdagi savollar “avtomatik javobni qabul qilish”dan “javobni tahlil qilish”ga o‘tishni ta’minlaydi. Akademik halollik (academic integrity) bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, halollik “plagiatni ushlab” bilan cheklanmaydi; u oliy ta’lim muassasasining qadriyatlar tizimi sifatida qaraladi. T. Fishman tahriri ostidagi fundamental qadriyatlar konsepsiyasida akademik halollik halollik, ishonch, adolat, hurmat va mas’uliyat kabi tamoyillar orqali izohlanadi. Bu tamoyillar bevosita ta’limiy muloqot sifatini ham belgilaydi: ishonch bo‘lmagan muhitda hamkorlik va ilmiy munozara mazmunan zaiflashadi.

D. Pecorari akademik yozuv va plagiat masalasini tahlil qilib, plagiatni faqat “o‘g‘rilik” sifatida ko‘rish yetarli emasligini, ko‘pincha u akademik yozuv ko‘nikmalari (parafraz, iqtibos, bibliografiya) yetishmasligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. SI davrida aynan shu muammo kuchayadi: talaba “parafraz”ni o‘zi emas, SI orqali bajaradi, natijada mualliflik hissasi noaniqlashadi, manba ko‘rsatish motivatsiyasi pasayadi. Adabiyotlarda akademik halollikni ta’minlashning samarali modeli sifatida “jazolashdan ko‘ra oldini olish” (prevention-oriented) yondashuvi ko‘p uchraydi. Millatlararo muloqot madaniyati bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, avvalo, interkultural kompetensiya (intercultural competence) tushunchasini markazga qo‘yadi. D. Deardorff interkultural kompetensiyani shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali va

moslashuvchan muloqot qila olishi, bunda bilim (madaniyatlar haqida tasavvur), ko‘nikma (tinglash, moslashish, tahlil), munosabat (hurmat, ochiqlik) va natija (samarali hamkorlik) komponentlari mavjudligini ta’kidlaydi. Bu modelning kuchli tomoni shundaki, u muloqotni faqat til bilish bilan cheklamaydi; muloqot qadriyat, munosabat va refleksiya ham talab qiladi. Filologiya va tilshunoslik yo‘nalishida pragmatika doirasidagi tadqiqotlar (nutq aktlari nazariyasi) muloqot madaniyatini tushuntirishda metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. J. Austin va J. Searle nutqning “amal” sifatida ishlashi (speech acts), ya’ni gapning faqat ma’no emas, ta’sir ham berishini ko‘rsatadi. Interkultural vaziyatlarda aynan nutq aktlarining pragmatik “kuchi” (iltimos, uzr, tanqid, minnatdorchilik) turli madaniyatlarda turlicha ifodalanishi mumkin. Demak, millatlararo muloqot madaniyati — bu pragmatik nozikliklarni anglash va moslashishdir. SI bo‘yicha ta’lim adabiyotlarida ikki yo‘nalish parallel ko‘rinadi:

1. SI — shaxsiylashtirilgan ta’lim, tezkor fikr-mulohaza (feedback), til o‘rganish, yozuvni tahrirlash kabi vazifalarda samarali “yordamchi”;
2. SI — akademik halollik va mustaqil fikrlash uchun risk manbai.

Mazkur ziddiyatni “ishonchlilik paradoksi” deb izohlash mumkin: SI ko‘pincha grammatik jihatdan to‘g‘ri va mantiqan silliq matn yaratadi, shu sababli talaba uni “ishonchli” deb qabul qiladi. Ammo silliq matn ilmiy ishonchlilik kafolati emas. Shu bois adabiyotlar SI bilan ishlashda fact-check, manba qidirish, dalilni verifikatsiya qilishni alohida kompetensiya sifatida ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, SI ta’limiy jarayonda interkultural muloqotni simulyatsiya qilishga ham xizmat qilishi mumkin: rol o‘yinlari, vaziyatli dialoglar, turli madaniyatga mos uslubiy variantlar, etiketa formulalarini taqqoslash. Biroq adabiyotlarda SI ning “madaniy stereotiplarni qayta ishlab berishi” xavfi ham qayd etiladi: SI ommaviy ma’lumotlar asosida umumlashtirishi mumkin, bu esa etnosentrik yoki soddalashtirilgan tasvirga olib keladi. Demak, interkultural ta’limda SI dan foydalanish tanqidiy filtr bilan birga borishi kerak. Tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash bo‘yicha adabiyotlar ko‘proq kognitiv mexanizmlarga urg‘u beradi, akademik halollik bo‘yicha manbalar qadriyatlar va yozuv madaniyatini markazga qo‘yadi va millatlararo muloqot adabiyotlari esa interkultural kompetensiya, pragmatika va stereotiplar muammosini yoritadi. Ammo SI sharoitida bu uch yo‘nalish ko‘pincha alohida tahlil qilinadi; integratsiyalashgan model kam uchraydi. Shuning uchun ushbu maqolaning ilmiy yangiligi sifatida “SI sharoitida tanqidiy fikrlash + akademik halollik + millatlararo muloqot madaniyati”ni yagona didaktik tizim sifatida ko‘rib, “halollikka yo‘naltirilgan SI-didaktika” modelini taklif etish asoslanadi.

**Xulosa.** Maqolada oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi tanqidiy fikrlash, akademik halollik va millatlararo muloqot madaniyati integratsiyasida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, SI ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish, matnni strukturaviy tahlil qilish, til-uslubni yaxshilash, interkultural vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali sezilarli didaktik

imkoniyatlar yaratadi. Biroq SI “tayyor javob” madaniyatini kuchaytirishi, manbasiz da’volarni ko‘paytirishi, mualliflik ovozi susaytirishi va plagiatning yangi ko‘rinishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Amaliy takliflar sifatida: (1) fanlar kesimida SI bilan ishlash bo‘yicha shaffof yo‘riqnoma va “AI statement” standartini joriy etish; (2) baholashni natija bilan birga jarayonga ham tayantirish; (3) interkultural muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar (etiketa taqqoslash, stereotip tahlili, pragmatik moslik)ni tizimli qo‘llash; (4) o‘qituvchilar uchun SI savodxonligi, akademik yozuv, raqamli etika va interkultural pedagogika bo‘yicha qisqa modul ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, SI oliy ta’limda nafaqat texnologik yangilik, balki ta’limning kognitiv, etik va sotsiomadaniy vazifalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etuvchi omildir. Uning ijobiy ta’siri to‘liq namoyon bo‘lishi uchun tanqidiy fikrlash, akademik halollik va millatlararo muloqot madaniyati yagona integratsion tizim sifatida yo‘lga qo‘yilishi, SI esa ana shu tizimga xizmat qildirilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Normirzayeva Zarnigor Xasanboy qizi. *Akademik ingliz tilida paraphrasing va plagiarism muammosi.*
2. Madumarova Shoxsanam Muxtorali qizi. *Madaniyatlararo muloqot va ta’lim: o‘zaro aloqadorligi, istiqbollar va chaqiriqlar.* — MMIT’24 xalqaro konferensiya materiallari, 2024.
3. To‘raboyeva M. *Hozirgi zamon ta’lim jarayonida talabalarni ... (sun’iy intellekt, akademik halollik masalalari doirasida).*
4. Azimova Z. *Ta’limda sun’iy intellekt imkoniyatlari.*
5. Shermanova F. *Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va (sun’iy intellekt tizimlari) ...* — 2024.
6. Qahramonova L. *Sun’iy intellektning ta’limdagi roli.* — 2025.
7. Xolmaxamadovich J.N. *Oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish: pedagogik muammolar, etik va huquqiy xavotirlar...* — 2025.
8. Adilovich M.A. *Ta’limda generativ sun’iy intellekt va akademik halollik ...* — 2025.
9. Bekniyozova F.O.K.Q. *Oliy ta’limda chet tilini o‘qitishda akademik halollik tushunchasi va bunda yozish ko‘nikmasining o‘rni.* — 2022.
10. Mirzayevna S.X. *O‘zbekistonda sun’iy intellektni qo‘llash ... (joriy etish va rivojlantirish holati tahlili).* — 2025.
11. Egamova G. *Sun’iy intellektning jamiyatga ta’siri.* — 2025.
12. Ilhomovna B.M. *Sun’iy intellektning ta’limdagi roli va ...* — 2025.

13. Talha T. *Sun'iy intellekt texnologiyalarining madaniy ta'siri (fanlararo yondashuv)*. — 2025.

14. Toshkent davlat agrar universiteti. *Akademik axloq kodeksi (akademik halollik va axloq etikasi tamoyillari)*. — 2025.

15. Adliya vazirligi huzuridagi o‘quv platforma materiali. *Ta'limda sun'iy intellekt: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollor*. — 2025.